

BUYRUQ

**Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligining 73-QQ sonli qo'shma
qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi ijroiya qo'mitasi bilan 2021-yil 8-noyabrdagi imzolangan 73-QQ sonli "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida "Yashil makon" umumilliy loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qo'shma qarori ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi ijroiya qo'mitasi bilan 2021-yil 8-noyabrdagi imzolangan 73-QQ sonli "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida "Yashil makon" umumilliy loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qo'shma qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qo'shma qarorga ko'ra Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tizimdagagi ta'lim muassasalarini va tashkilotlarda joriy yil 10-dekabrga qadar daraxt ekish bo'yicha "Dolzarb 40 kunligi" e'lon qilinganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor (S.Abdullayev), Bosh injener (F.Murshayev) va Xo'jalik bo'limi boshlig'i (A.Ortiqov) larga:

3.1. Universitet tomonidan daraxt ko'chatlarini ekish maydonlari tuman hokimligi bilan kelishilgan holda aniqlansin. Bunda birinchi navbatda universitet bino va inshootlari joylashgan maydonlarda bog'lar hosil qilishni, mavjuda bog'larni to'ldirishni va ko'kalamzorlashtirishni nazarda tutgan holda ekiladigan daraxt ko'chatlari turlari hududning iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda tanlab olinsin.

3.2. Dastlab universitet binolari hovlisiga, mahallalar, yo'l chetlariga, bo'sh bo'lgan, qurigan daraxtlar o'rniga ekilishi maqsadga muvofiq deb hisoblansin.

4. Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i (S.Egamov)ga:

4.1. Joriy yil 11-dekabrga qadar kunlik ekilgan daraxtlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Ma'naviyat va ma'rifat markazi (Telegram raqami 93-549-41-09)ga har kuni soat 18:00ga qadar kiritib borilsin.

2. Ushbu buyruq ijrosi nazaratini o'z zimmamda qoldiraman.

Rektor

U.Azizov

LOYIHA KIRITUVCHI:

Bosh injener F.Murshayev _____

KELISHILDI:

O'quv ishlari bo'yicha prorektor
B.Kulmatov _____
Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
S.Abdullayev _____

Huquqshunos
F.Mirzayev _____